

«T A S D I Q L A Y M A N»
Navoiy viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i,
Tanlov komissiyasining raisi

A. Sarabekov

2022-yil 8-iyun

**Navoiy viloyat adliya boshqarmasi tomonidan davlat xizmatlari
markazi binosida davlat xizmatlari uchun to‘lovlarni qabul
qiladigan tijorat banklari shoxobchalarini ijara to‘lovlarini
undirmagan holda besh yilgacha bo‘lgan muddatga joylashtirish
bo‘yicha**

TANLOV HUJJATI

Navoiy-2022 yil

MUNDARIJA

I Bob.	Qatnashchiga ko‘rsatma.....	3
II Bob.	Tanlov hujjatlarini baholash me’zonlari.....	7
	Tijorat banklari shoxobchalarini joylashtirish bo‘yicha tanlovga qo‘yilgan davlat	
III Bob.	xizmatlari markazlari	9
	Davlat xizmatlari markazlariga tijorat banklari shoxobchalarini joylashtirish	
IV Bob.	bo‘yicha tanlov qatnashchilarining takliflari namunasi	10
V Bob.	Tanlov o‘tkazish to‘g‘risida e’lon	12

I BOB. QATNASHCHIGA KO'RSATMA

A. Umumiy ma'lumot

Tanlov predmeti
Mazkur tanlov hujjatlarida ishlataladigan tushunchalar
Xarid komissiyasining vazifalari
Qatnashchiga tanlovda qatnashish uchun qo'yiladigan talablar
Tanlov doirasida hujjatlarning maxfiyligini ta'minlash

B. Tanlov hujjatlari

Tanlov hujjatining tarkibi
Tanlov hujjatlariga aniqlik kiritish
Tanlov hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

D. Tanlov hujjatlarini tayyorlanishi

Tanlovda qatnashish xarajatlari
Tanlovda qo'llaniladigan til
Tanlov taklifini tashkil qiluvchi hujjatlar
Tanlov taklifini rasmiylashtirish va imzolash

E. Tanlov taklifining topshirilishi va ochilishi

Tanlov takliflarini topshirishning oxirgi muddati
Tanlov takliflarining ochilishi

F. Tanlov takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash tartibi

Tanlov takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash
Takliflarning mos kelmasligi

A. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1. Tanlov predmeti

Navoiy viloyat adliya boshqarmasi tomonidan davlat xizmatlari markazi binosida davlat xizmatlari uchun to'lovlarni qabul qiladigan tijorat banklari shoxobchalarini ijara to'lovlarni undirmagan holda besh yilgacha bo'lgan muddatga joylashtirish bo'yicha shartnoma tuzish huquqi. (shartnoma muddati 5 yilgacha)

Tanlovnii tashkil qilishning asosiy maqsadlari quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-apreldagi PF-113-son "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantrishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Navoiy viloyat adliya boshqarmasi tomonidan davlat xizmatlari markazlari binolarida davlat xizmatlari uchun to'lovlarni qabul qiladigan tijorat banklari shoxobchalarini ijara to'lovlarni undirmagan holda besh yilgacha bo'lgan muddatga joylashtirish.

2. Mazkur tanlov hujjatlarida ishlataladigan tushunchalar

Budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan Navoiy shahar Navoiy ko'chasi bo'ylab adliya boshqarmasiga ma'muriy bino qurilish ob'ekti loyiha-smeta hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishni (keyingi o'rinda – loyiha-smeta hujjatlar) amalga oshirish bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlash (keyingi o'rinnlarda – Tanlov) o'tkazishdan maqsad – mazkur Tanlov hujjatlar talablari asosida loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirish kirituvchi tashkilotni aniqlash.

To'lov bo'yicha xizmat ko'rsatganlik uchun undiriladigan bank komissiyasi - davlat xizmatidan foydalanishda undiriladigan to'lovlarni Markazlarda joylashgan tijorat banklari shoxobchasidan naqd yoki naqd pulsiz shaklda amalga oshirganda ikki foizgacha bo'lgan tijorat bankining komissiya summasi bo'lib (bundan davlat boji to'lovlari mustasno), bu uchun alohida to'lov undirilmaydi. Bunda, mablag'larni oluvchilarning har biriga yo'naltiriladigan summalar proporsional ravishda kamaytirilgan holda, tijorat bankining komissiya to'lovi xizmatdan foydalanish uchun to'lanadigan to'lov hisobidan o'tkazib beriladi

Tanlov o'tkazish tartibi – bir bosqichli.

Buyurtmachi – Navoiy viloyat adliya boshqarmasi;
Manzili: 210100, Navoiy viloyati, navoiy shahri, Navoiy ko'chasi;
Tanlov komissiyasi kotibi Qulmurodov Afzal Akbarovich;
Tel.: (79) 220-79-29.

3. Tanlov komissiyasining vazifalari:

- tanlov o'tkazish tartib-qoidalarini belgilaydi;
- belgilangan tartibda tanlovni o'tkazadi;
- tanlov talabgorlariiga taalluqli barcha hujjatlarni taqdim qilish, muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilish;
- tanlov bo'yicha kelib tushgan takliflarni ochish sanasini belgilash;
- takliflar bildirilgan konvertlarni ochadi, ularning tanlov hujjatlari bilan belgilangan talablarga (taqdim etilgan hujjatlarning to'liqligi, ularning rasmiylashtirilishi va hokazo) muvofiqligini tekshiradi;
- talabgorlar tomonidan taqdim etilgan takliflarini ko'rib chiqishda narxlarning sun'iy ravishda oshirilishini oldini olish va xolislikka hamda qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish;
 - zarur hollarda komissiya faoliyatiga mutaxassis xodimlar jalb etilishini nazarda tutish;
 - g'olib deb topilgan talabgorlar bilan shartnoma imzolash bo'yicha taklif beradi.

Tanlovnii tashkilotchisi

- Ishchi organ. Uning vazifasiga quyidagilar kiradi:

- tanlov hujjatlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi va ularni o'rnatilgan tartibda talabgorlarga taqdim etadi;
- tanlov o'tkazilishi to'g'risida boshqarma rasmiy veb-saytiga e'lon beradi, viloyat hududidagi tijorat banklariga tanlov to'g'risida ma'lumot chiqaradi;
- tanlov takliflarini baholash mezonlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

4. Qatnashchiga tanlovda qatnashish uchun qo'yiladigan talablar:

Qatnashchi - mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, tanlov talablarida ko'rsatilgan xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tajribaga ega bo'lgan tijorat banklari.

Qatnashchi:

- taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riliqi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
- taqdim etilgan taklifni takliflarni taqdim etish muddati tugamaguncha qaytarib olish yoki o'zgartirish huquqiga ega.

Tanlov takliflarini tayyorlaydi va Tanlov komissiyasiga taqdim etadi. Ularning faoliyatini va moliyaviy holatini baholash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha axborotni taqdim etadi (Tanlov komissiyasining so'roviga ko'ra).

Qatnashchi Tanlov komissiyasiga (muhrlangan) konvertni **yo'llanma xat** bilan taqdim qilgan bo'lishlari kerak. Konvertda talabgor nomi, manzili va Tanlov komissiyasi manzili, nomi hamda ishtiroy etayotgan tanlov nomi ko'rsatilgan bo'lib, baholash mezonlaridagi ko'rsatkichlar bo'lishi lozim:

Qatnashchi tanlov takliflarini tayyorlash va taqdim etish davomida sarflangan barcha moliyaviy xarajatlarni o'z hisobidan qoplaydi.

Tanlovda g'olib chiqqan taqdirda buyurtmachi bilan shartnomalar tuzadi.

Tanlov g'olibi – takliflarni baholash yakunlari bo'yicha tanlovda eng ko'p ball to'plagan tanlov qatnashchisi.

Zahiradagi qatnashchi – tanlov g'olibidan keyingi o'rinda turgan ko'p ball to'plagan qatnashchi.

5. Tanlov doirasida hujjatlarning maxfiyligini ta'minlash

Tushgan takliflarning ko'rib chiqilishi, ularning Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan baholanishi to'g'risidagi axborot maxfiy hisoblanadi hamda tanlov tartib-qoidasiga rasman aloqador bo'limgan shaxslarga ma'lum qilinmaydi. Tanlov komissiyasi a'zolari mazkur axborot oshkor qilinganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

B. TANLOV HUJJATLARI

6. Tanlov hujjatining tarkibi

Tanlov hujjatlari tarkibi quyidagilardan iborat:

1. Tanlov hujjatlarini baholash me'zonlari – 1-ilovaga muvofiq;

2. Tijorat banklari shoxobchalarini joylashtirish bo'yicha tanlovga qo'yilgan davlat xizmatlari markazlari ro'yxati – 2-ilovaga muvofiq;

3. Davlat xizmatlari markazlariga tijorat banklari shoxobchalarini joylashtirish bo'yicha tanlov qatnashchilarining takliflari namunasi – 3-ilovaga muvofiq;

4. Tanlov o'tkazish to'g'risida e'lon – 4-ilovaga muvofiq.

Tanlov qatnashchisi unga berilgan tanlov hujjatini va shu bilan birga barcha ko'rsatmalar, shakllar, shartlar va texnik tafsilotlarni to'liq o'rganib chiqishi shart.

Tanlov hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan barcha talab qilingan ma'lumotlarni bermaslik yoki taklifning tanlov hujjatlarini talablariga to'liq to'g'ri kelmasligi, taklifning qabul qilinmasligiga olib keladi.

7. Tanlov hujjatlariga aniqlik kiritish

Hujjatlarni taqdim etish muddati tamom bo'lgunga qadar Qatnashchi tanlov hujjatlariga qandaydir aniqlik kiritish uchun Tanlov komissiyasiga yozma ravishda murojaat qilishlari mumkin:

Tanlov komissiyasi talabgorning so'roviga ko'ra Tanlov takliflarini taqdim etishning so'nggi muddatidan kamida 3 kun oldin so'rov manbasini ko'rsatmagan holda tanloving barcha qatnashchilariga majburiy tartibda javob yuborib, tanlov hujjatlarining mohiyati yoki mazmuni bilan bog'liq savolga yozma javob berishi shart.

8. Tanlov hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

Takliflarni taqdim etish muddati tamom bo'lgunga qadar kamida 3 kun oldin Tanlov komissiyasining komissiya qaroriga muvofiq talabgorlarga ma'lum qilib, taklifga tuzatish kiritish uchun yetarli bo'lgan vaqt bergen holda, uning muddatini uzaytirib, tanlov hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqlidir.

D. TANLOV HUJJATLARINI TAYYORLANISHI

9. Tanlovda qatnashish xarajatlari

Tanlovda ishtirok etish va tanlov hujjatini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar qatnashchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Narxlarning oshishiga qarab o'zgartiriladigan narxlarni ko'zda tutuvchi tanlov takliflari istalgan bosqichda, tanlov talablariga javob bermaydi deb qaraladi va Tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi rad etiladi.

10. Tanlovda qo'llaniladigan til

Qatnashchilar tomonidan berilayotgan takliflar, Buyurtmachi va qatnashchi o'rtasidagi xatlar va barcha tegishli hujjatlar o'zbek tilida tayyorlanadi.

11. Tanlov taklifini tashkil qiluvchi hujjatlar

Tanlov takliflari bir asl nusxdan, faqat muhrlangan konvertda bo'lishi lozim. Xarid komissiyasi nomini va manzili ko'rsatilgan konvertda **baholash mezonlarida** keltirilgan hujjatlar, yo'llanma xat bilan birqalikda qabul qilinadi.

Konvertning yuza qismida ishtirokchining nomi, bog'lanish uchun telefon raqamlari, yuridik manzili va tanlov nomi va loti ko'rsatiladi.

Tanlov komissiyasi lozim bo'lganda Tanlov qatnashchilaridan taqdim etilgan Tanlov takliflarini tasdiqlash uchun qo'shimcha yoki boshqa ma'lumotlarni talab qilishi mumkin.

12. Tanlov takliflarini rasmiylashtirish va imzolash

Tanlovda ishtirok etish uchun qatnashchi tanlov hujjatlarini imzolash vakolati bor o'zining vakilini tayinlashi mumkin. Vakil tomonidan imzolash uchun qatnashchi o'z vakiliga tegishli ishonch xati berishi lozim, ishonch xati tashkilotning vakolatga ega shaxsi tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi kerak.

Tanlov qatnashchisining imzolanmagan, yelimlanmagan va muhrlamagan konvertlari ko'rib chiqilmaydi va Tanlov komissiyasi tomonidan rad etiladi.

E. TANLOV TAKLIFINING TOPSHIRILISHI VA OCHILISHI

13. Tanlov takliflarini topshirishning oxirgi muddati

Qatnashchilarning tanlov takliflari boshqarma veb-saytida joylashtirilgan e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechikmasdan Tanlov komissiyasiga topshiriladi (shanba, yakshanba dam olish kuni).

Tanlov takliflarini topshirishning oxirgi muddatiga 1 kun qolgunga qadar tanlov qatnashchisi o'z takliflarini qaytarib olishi yoki taklifga o'zgartirish kiritishi mumkin.

Tanlov qatnashchisi tomonidan tanlov hujjatlarida talab etilgan ma'lumotlar to'liq taqdim etilmasligi yoki mazkur tanlov hujjatlari talablariga javob bermaydigan takliflar (konvertlarning yopishtirilmasdan berilishi, shakllarning noto'g'ri to'ldirilishi, talab qilingan hujjatlarni taqdim etmaslik va h.k) ko'rib chiqilmaydi va rad etiladi.

14. Tanlov takliflarining ochilishi

Tanlov takliflari berishning belgilangan muddati tamom bo'lgach belgilangan kundan 10 kundan ko'p bo'lmagan muddatda Tanlov komissiyasi tanlov takliflari berilgan konvertni ochadi.

Takliflar bildirilgan konvertlar, qatnashchilar yoki ularning to'laqonli vakillari ishtirokida ochiladi. Qatnashchilar vakillari qatnashmaganligi konvertning ochilmasligiga yoki mazkur jarayonning qayta o'tkazilishiga asos bo'la olmaydi.

Konvert ochilgandan keyin tanlov qatnashchilarini Tanlov komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan tashkilotlar sanab o'tiladi, tanlov hujjatlarining talablarga mosligi va shartlarning to'laqonli bajarilishi tekshiriladi.

Hujjatlar paketida tanlov hujjatlariga qo'yiladigan talablar buzilganligi aniqlangan taqdirda, hujjatlar ularning mazmuni e'lon qilinmasdan qatnashchiga qaytariladi.

Tanlov komissiyasi majlisining natijalari bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomada tanlov qatnashchilarini tomonidan e'tirof etilgan tashkilotlar sanab o'tiladi. Shakl bo'yicha taqdim etilmagan va tanlovga qo'yilmagan takliflar, bayonnomada ular rad etilishining sabablari ko'rsatilgan holda alohida sanab o'tiladi.

Tanlov takliflari bildirilgan konvertlarni ochish va g'olibni aniqlash to'g'risidagi bayonnomaga ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinmaydi.

F. TANLOV TAKLIFLARINI BAHOLASH VA G'OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI

15. Tanlov takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash

Tanlov takliflarini belgilangan mezonlar asosida baholash Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

Tanlov takliflarini baholash bir bosqichdan iborat.

Tanlov takliflarini baholash vaqtida Tanlov komissiyasi tanlov qatnashchisidan uning tanlov takliflari borasida tushuntirishlar berishini so'rashi mumkin.

Baholar 1-ilovaga muvofiq baholash mezonlariga asosan qo'yiladi.

Tanlov takliflarini qarab chiqish muddati 10 kundan oshmaydi.

Eng ko'p ball to'plagan qatnashchi g'olib deb hisoblanadi.

Yakun chiqarish va tanlovnинг g'olibи to'g'risidagi qaror Tanlov komissiyasi tomonidan qabul qilinadi. G'olibni tanlashda Tanlov komissiyasi a'zolarining yakka tartibdagi xulosasiga asoslaniladi. Qaror Tanlov komissiyasi a'zolari umumiyoq sonining oddiy, ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, Tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi tanlov hujjatlari shartlariga mos kelmaydigan har qanday tanlov takliflarini qabul qilish yoki rad etish huquqini o'zida olib qoladi.

Tanlov komissiyasining so'rovlariiga javob bera olmaydigan qatnashchilar tomonidan taqdim etilgan (berilgan) har qanday tushuntirishlar ko'rib chiqilmaydi.

Tanlov komissiyasining yakuniy bayonnomasida g'olib va zahiradagi qatnashchilar, Tanlov komissiyasi xulosasi, qatnashchilarining tanlov takliflari yig'ma jadvali va g'olib bilan shartnomalarini imzolashning mo'ljallanayotgan muddatlarini to'g'risidagi axborot mavjud bo'ldi.

Bayonnomada yig'ilishda ishtirok etgan a'zolar tomonidan imzolanishi va Tanlov komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

16. Takliflarning mos kelmasligi

Tanlov hujjatlarini tekshirish chog'ida aniqlangan arifmetik xatolar mavjud bo'lgan taqdirda Tanlov komissiyasi:

qatnashchiga tanlov taklifiga tuzatish kiritish imkoniyatini berishi;

Agar so'zlar bilan yozilgan summa (narx) bilan raqamda ko'rsatilgan summa (narx) o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, u holda so'zlar bilan yozilgan summa (narx) ustunlik qiladi.

Agarda qatnashchi xatolarni to'g'rilashdan bosh tortsa, uning tanlov taklifi Xarid komissiyasining qarori bilan chetlashtiriladi.

Tanlov quyidagi hollarda bo'lib o'tmagan deb e'lon qilinadi:

tanlov takliflarini taqdim etishning eng oxirgi muddatiga taklif tushmasa yoki faqat bitta taklif tushsa;

barcha tanlov takliflari tanlov hujjatlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lmasa;

barcha tanlov takliflari tanlov hujjatlar shartlari bilan talab qilinadigan hujjatlar mavjud bo'lmasa.

Tanlovnинг bo'lib o'tmagan, deb e'lon qilinishi tanlov qatnashchilaridan biron-birining mulkiy yoki boshqa javobgarligiga olib kelmaydi.

**Davlat xizmatlari markazlariga tijorat banklari shoxobchalarini joylashtirish
bo'yicha tanlov ishtirokchilarini baholash**

MEZONLARI

Nº	Tanlov shartlari	Miqdor (ko'rsatkichlar)	Baholash (ball)
1	Markazda joylashtiriladigan kassa operatorlari soni	1 nafar	5
		2 nafar	10
		3 va undan ortiq	15
2	To'lov bo'yicha xizmat ko'rsatganlik uchun undiriladigan bank komissiyasi miqdori	~ 0,5 foizgacha	15
		0,51–0,7 foizgacha	12
		0,71–1,0 foizgacha	10
		1,01–1,5 foizgacha	8
		1,51–2,0 foizgacha	5
3	Bank ish rejimi bo'yicha Markazlar bilan hamkorlik	Markazlar ish grafigiga mos ravishda, tushlik tanaffusiz xizmat ko'rsata olish (jumladan, shanba kunlari)	10
		Markazlar ish grafigiga mos ravishda tushlik tanaffusiz xizmat ko'rsata olish (shanba kunlaridan tashqari)	7
		Markazlar ish grafigiga mos ravishda, tushlik tanaffusi bilan xizmat ko'rsata olish (shanba kunlaridan tashqari)	5
4	Bank faoliyatini amalga oshirayotgan muddati	5 yilgacha	3
		5 yildan – 10 yilgacha	5
		10 yildan 15 yilgacha	7
		15 yildan ortiq	10
5	Oxirgi yillik hisobotga ko'ra bankning jami kapitali miqdori bo'yicha	500 mlrd. so'mgacha	5
		500 mlrd.dan – 1 trln. so'mgacha	10
		1 trln. so'mdan ortiq	15
6	Respublikadagi bank filiallari soni bo'yicha	50 tagacha	5
		50 tadan - 100 tagacha	10
		100 tadan - 150 tagacha	15
		150 tadan yuqori	20

7	Markazlarda bank shoxobchalari faoliyat yuritish muddati	1 yildan – 2 yilgacha	5
		3 yildan – 4 yilgacha	7
		4 yildan – 5 yilgacha	10
8	Markazlarda qo'shimcha qulayliklar yarata olish qobiliyati	Bankomatlar va infokiosklar joylashtira olish, jumladan valyuta ayirboshlash imkoniyati yaratilganligi	3
		Markazning fuqarolarni qabul qilish joyiga (reseption) yordam uchun xodim ajrata olish	3
		Kassa uchun navbatni boshqarishning elektron qurilmalari mavjudligi	3
		Valyutani xorijga yuborish xizmati mavjudligi	2
		Boshqa bank xizmatlari mavjudligi	2
		Markazning sayyor xizmatlarida to'lovni qabul qilish imkoniyatining mavjudligi	2

**Tijorat banklari shoxobchalarini joylashtirish
bo‘yicha tanlovga qo‘yilgan davlat xizmatlari markazlari
ro‘yxati**

№	Davlat xizmatlari markazi nomi	Manzili
1	Navoiy shahar davlat xizmatlari markazi	Navoiy shahri, S. Ayniy ko‘chasi, 27-uy
2	Navbahor tuman davlat xizmatlari markazi	Navbahor tumani, Beshrabot MFY, Istiqlol massivi, 135-uy
3	Konimex tuman davlat xizmatlari markazi	Konimex tumani, Do‘stlik MFY, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy
4	Nurota tuman davlat xizmatlari markazi	Nurota tumani, Eshon Sudur MFY, I.Karimov ko‘chasi, 6-uy
5	Xatirchi tuman davlat xizmatlari markazi	Xatirchi tumani, Paraxun MFY, Paraxun ko‘chasi, 88-uy
6	Uchquduq tuman davlat xizmatlari markazi	Uchquduq shahri, A. Temur ko‘chasi, 33-uy

**Davlat xizmatlari markazlariga tijorat banklari shoxobchalarini joylashtirish
bo'yicha tanlov ishtirokchilarining
Takliflari**

Tijorat banki nomi _____
*Taklif yuborilgan DXM nomi _____

№	Tanlov shartlari	Miqdor** (ko'rsatkichlar)
1	Markazda joylashtiriladigan kassa operatorlari soni	1 nafar
		2 nafar
		3 va undan ortiq
2	To'lov bo'yicha xizmat ko'rsatganlik uchun undiriladigan bank komissiyasi miqdori	~ 0,5 foizgacha
		0,51–0,7 foizgacha
		0,71–1,0 foizgacha
		1,01–1,5 foizgacha
		1,51–2,0 foizgacha
3	Bank ish rejimi bo'yicha Markazlar bilan hamkorlik	Markazlar ish grafigiga mos ravishda, tushlik tanaffusiz xizmat ko'rsata olish (jumladan, shanba kunlari)
		Markazlar ish grafigiga mos ravishda tushlik tanaffusiz xizmat ko'rsata olish (shanba kunlaridan tashqari)
		Markazlar ish grafigiga mos ravishda, tushlik tanaffusi bilan xizmat ko'rsata olish (shanba kunlaridan tashqari)
4	Bank faoliyatini amalga oshirayotgan muddati	5 yilgacha
		5 yildan – 10 yilgacha
		10 yildan 15 yilgacha
		15 yildan ortiq
5	Oxirgi yillik hisobotga ko'ra bankning jami kapitali miqdori bo'yicha	500 mlrd. so'mgacha
		500 mlrd.dan – 1 trln. so'mgacha
		1 trln. so'mdan ortiq
6	Respublikadagi bank filiallari soni bo'yicha	50 tagacha
		50 tadan - 100 tagacha
		100 tadan - 150 tagacha
		150 tadan yuqori

7	Markazlarda bank shoxobchalari faoliyat yuritish muddati	1 yildan – 2 yilgacha 3 yildan – 4 yilgacha 4 yildan – 5 yilgacha
8	Markazlarda qo'shimcha qulayliklar yarata olish qobiliyati	Bankomatlar va infokiosklar joylashtira olish, jumladan valyuta ayirboshlash imkoniyati yaratilganligi Markazning fuqarolarni qabul qilish joyiga (reception) yordam uchun xodim ajrata olish Kassa uchun navbatni boshqarishning elektron qurilmalari mavjudligi Valyutani xorijga yuborish xizmati mavjudligi Boshqa bank xizmatlari mavjudligi Markazning sayyor xizmatlarida to'lovni qabul qilish imkoniyatining mavjudligi

* DXM (davlat xizmatlari markazi) ro'yxati alohida yuborilgan

**Ushbu ustundagi ko'rsatkichlardan faqat 1 tasini tanlashingiz mumkin.

Eslatib o'tamiz, har bir davlat xizmatlari markazlari bo'yicha alohida taklif yuborilishi maqsadga muvofiq, shuningdek siz tanlagan va taqdim etgan ko'rsatkichlar komissiya tomonidan baholash uchun asos bo'ladi.

m.o'.

Tanlov o‘tkazish to‘g‘risida e’lon

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-apreldagi PF–113-son “Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘sqliarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘s Shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minalash maqsadida Navoiy viloyat adliya boshqarmasi tomonidan davlat xizmatlari markazlari binolarida davlat xizmatlari uchun to‘lovlarni qabul qiladigan tijorat banklari shoxobchalarini ijara to‘lovlarini undirmagan holda besh yilgacha bo‘lgan muddatga joylashtirish bo‘yicha tanlov e’lon qilinadi.

Tanlov predmeti : Navoiy viloyat adliya boshqarmasi tomonidan davlat xizmatlari markazi binosida davlat xizmatlari uchun to‘lovlarni qabul qiladigan tijorat banklari shoxobchalarini ijara to‘lovlarini undirmagan holda besh yilgacha bo‘lgan muddatga joylashtirish bo‘yicha shartnomaga tuzish huquqi. (shartnomaga muddati 5 yilgacha)

E’lon bo‘yicha takliflar 2022-yil 17-iyun kuni soat 18:00 ga qadar qabul qilinadi.

Tanlov hujjatlari :

1-ilova tanlov hujjatlarini baholash me’zonlari

2-ilova tanlovga qo‘ylgan davlat xizmatlari markazlari ro‘yxati

3-ilova taklif varaqasi namunasi

- Taklif varaqalari har bir davlat xizmatlari markazlari bo‘yicha alohida taqdim etilishi shart.
- Takliflar muhrlangan konvertlarda Navoiy shahar Navoiy ko‘chasida joylashgan Navoiy viloyat adliya boshqarmasiga taqdim etilishi lozim.
- Tanlov ochiq shaklda Navoiy viloyat adliya boshqarmasi binosi (Navoiy shahar Navoiy ko‘chasi)da o‘tkaziladi.

Qo‘s Shimcha ma‘lumotlar uchun (79) 220-79-29. (79) 222-11-08 (7517).